

MADANIYAT JAMIYAT TARAQQIYOTI MANBAI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti 1-bosqich talabasi

Norbadalova Kumush Ilhom qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikrlar yuritilgan va bayon qilingan. Undan tashqari davlatimizning madaniyatga qaratilgan e’tibori haqida ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat ,jamiyat,konsepsiya ,taraqqiyot,xalq,davlat.

КУЛЬТУРА КАК ИСТОЧНИК РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация: В этой статье рассматриваются и излагаются соображения о роли культуры в развитии общества. Кроме того, было упомянуто внимание нашего государства к культуре.

Ключевые слова: культура, общество, понятие, прогресс, народ, государство.

CULTURE IS THE SOURCE OF THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abstract: this article discusses and outlines the role of culture in the development of society. In addition to him, the attention of our state to culture was also mentioned.

Keywords: culture ,society,concept ,development,people,state.

Har bir davlatning tarixini, o‘tmishini, uning qanday yuksalganini biz birinchi o‘rinda madaniyatidan ilm-fan ravnaqidan bilamiz va o‘rganamiz. Shunday ekan jamiyat yuksalishi, uning rivojlanishi va taraqqiyotida ham Madaniyatning o‘z o‘rni va vazifalari bor.

Moziyga nazar tashlasak, davrlar o‘zgarsada, xalq manfaatiga abadiy xizmat qiluvchi foydali g‘oyalar hech qachon yoqolib ketmagan(1). Masalan, xalqning urf-odatlari, marosimlari, yaxshilikka, tinch-totuv hayotga yetaklovchi, xalq nomoddiy madaniy meroslarini olsak, tazyiqlarga uchrasada, davrlar kelib xalq hohishini behuda bo‘lmasligini tan olmoqda. Muayyan bir xalqning iqtisodiyoti qanchalik yuqori cho‘qqiga ko‘tarilmasin, davlati qanchalik boy bo‘lmasin ma’naviy madaniyati bo‘lmasa bu davlat qum ustiga qurilgan zaif qasr singari bo‘ladi. Tarixdagi davlatlar va imperiyalar esa bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mamlakat tom ma’noda haqqoniy rivojlanish uchun ma’naviy-madaniyat va iqtisodiyot tengma-teng rivojlanishi shart va madaniyat yo‘nalishidagi vatandoshlarimiz doimo jamiyatimizga madaniyatni tarqatishda va ularni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilib kelmoqdalar. Shu o‘rinda savol tug‘iladi? Madaniyat so‘zi o‘zi qanday ma’noni anglatadi. Madaniyat arabcha so‘z bo‘lib, ”shaharga ozod, farovon maskan ma’nosini bildiradi. Madaniyat tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydi. Madaniyat atamasi keng ma’noda qo‘llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy ma’naviy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlarini, o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik va ma’rifatlilik hamda turmushning inson ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlar majmuyini ifodalaydi. Shunday ekan, Madaniyat jamiyat faoliyatining ham mahsuli ham sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatimiz va davlatimizda ham madaniyatimizni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 28-noyabr kuni O‘zbekistonda milliy madaniyat yanada rivojlantirish konsepsiyasi(2) tasdiqlandi. Shu bilan birga xalqimizning ma’naviy-marifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada

mustahkamlash hamda shu mutaxasislarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng islohotlar olib borilmoqda .Bu islohotlarning zamirida xalqning o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviy ongini yuksaltirish,dunyoqarashini yanada rivojlantirish hamda istedodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash,milliy madaniyatimizni jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini o‘rganish va asrab-avaylash mqsadi yotadi.

Aniq qilib aytadigan bo‘lsak, Respublikamizning barcha viloyat,tuman, shahar va chekka qishloqlarda madaniyat muassasalari haqiqiy amaliyot darajasida faoliyat olib bora olsalar, o‘zlarining barcha takliflarini va vazifalarini xalqimizga , jamiyatimizga tushuntirib va kelajak avlod bilanhamfikir bo‘lsalar madaniyat doimo jamiyat negizida bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam,hozirgi globallashuv davrida ,har birimiz Madaniyatimizni,milliy urf-odatlarimizni,san‘atimizni rivojlantirishimiz kerak va uni dunyo miqyosida tanitish uchun qo‘limizdan keladigan barcha ishlarni qilishimiz shart va zarur.Davlatimiz rahbarining sohaga doir barcha Farmon va Qarorlarini o‘rganib,mazmun-mohiyatini teran anglab juda katta ma‘suliyat bilan madaniyat sohasini yuksaltirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san‘atning o‘rni mavzusidagi maqolalar to‘plami.Toshkent-2020.D.Karimova.434-bet.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi “PQ-4038qaroridan.